

UDK: 619:636:616

## SOG'IN CIGIRLARDA JIGAR DISTROFIYASI PAYTIDA OQSILLAR ALMASHINUVINING HOLATI

*M.Qambaraliyeva, iqtidorli talaba;  
N.B.Ro'ziqulov, ilmiy rahbar, dotsent  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-martda qabul qilingan PQ-4841-sonli «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining ijrosini ta'minlashda, shuningdek, ichki bozorni sifatli va yetarli miqdordagi chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yosh chorva mollarining modda almashinuvi buzilishi kasalliklari asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, modda almashinuvi (metabolizm) – tiriklik uchun zarur moddalarning tashqi muhitdan organizmga tushishi, hazmlanishi, o'zlashtirilishi va hosil bo'lgan so'ngi mahsulotlar (metabolitlar)ning tashqi muhitga chiqarilishini o'z ichiga oluvchi murakkab fiziologik jarayon bo'lib, bu jarayon hayvon organizmida oqsillar, uglevodlar, lipidlar, mineral moddalar va vitaminlar almashinuvi shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlarning buzilishi qator metabolizm kasalliklariga sabab bo'ladi (B.Bakirov, 2015).

Tibbiyotda bo'lganidek, chorvachilikda ham organizmning oqsilga bo'lgan talabini qondirish, ushbu almashinuv jarayonlaridagi har qanday buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va kerakli profilaktika choralarini ko'rish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiy ma'lumotlarda e'tirof etilishicha (I.P.Kondraxin, 1989) organizmda oqsillar almashinuvining holatiga nafaqat alimentar omillar, balki endogen oqsil sintezi jarayonlarining qay darajada amalga oshishi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Organizmdagi albuminlar,  $\alpha$ -globulinlar,  $\beta$ -globulinlarning bir qismi jigarda,  $\beta$ -globulinlarning qolgan qismi va  $\gamma$ -globulinlar (shu jumladan immunoglobulinlar) limfoid to'qima hujayralarida sintezlanadi (V.V.Novitskiy, YE.D.Goldberg, 2001). Demak, endogen oqsillar sintezida eng asosiy vazifalarni bajaradigan a'zolardan biri jigar hisoblanadi.

**Olingan natijalar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning silos-konsentrat va dag'al xashak-konsentrat tipidagi oziqlantirishga

mo'ljallangan fermer xo'jaliklari sharoitidagi sog'in sigirlarning o'rtacha 29,7-32,7 foizi laktatsiyaning 4-6 oylarida jigar distrofiyasi kasalligi bilan kasallanadi. Bu paytda sigir organizmida boshqa qator buzilishlar bilan birgalikda oqsillar almashinuvida ham chuqur patologik o'zgarishlar ro'y beradi. Xususan, bu paytda qondagi umumiy oqsil miqdori o'rtacha 52,5-61,3 gG'l gacha, albuminlarning 26-32 foizgacha pasayishi hamda  $\gamma$ -globulinlarning o'rtacha 30-34,5 foizgacha ko'payishi kuzatiladi.

Qondagi mochevina miqdori bu paytda o'rtacha 1,8-2,05 mmolG'l atrofida bo'ladi.

Kolloidli cho'kmali sinamalardan sulemali sinamaning musbat natija berishi kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, kasallik paytida oqsillar almashinuvi darajasining pasayishi silos-konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog'in sigirlarning o'rtacha 70 foizida, dag'al xashak-konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog'in sigirlarning esa o'rtacha 80 foizida kuzatiladi.

**Xulosa:** Sog'in sigirlarda jigar distrofiyasi paytida hayvonlarning 70-80 foizida oqsillar almashinuvi darajasi pasayadi va bunda gipoproteinemiya, gipoalbuminemiya, gipergammaglobulinemiya, disproteinemiya va qondagi mochevina miqdorlarining pasayishi belgilari kuzatiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboev, O. R., Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Askarov, S. S. (2021). Peculiarities of metabolic disorders in endemic cows. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2196-2200.
2. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
3. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2018). Ёш хайвонлар ва паррандаларнинг юқумсиз касалликлари. *Ўқув услубий қўлланма. Самарқанд*.
4. Бакиров, Б., & Рузикулов, Н. Б. (2017). Причины и ранняя диагностика нарушений метаболизма и дистрофии печени у коров в республике Узбекистан. *Ветеринария*, (5), 49-53.
5. Бакиров, Б., Рузикулов, Н. Б., Бобоев, О. Р., & Улугмуродов, Ю. (2021). Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 215-220.
6. Bakirov, B. B., & Ro'ziqulov, N. B. (2018). Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklari. *O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand*.
7. Baxtiyar, B., Nuriddin, R., Oybek, B., & Hokimjon, K. (2017). Etiopathogenesis, hepatogenetic implications and early diagnosis of disorders of

protein metabolism in productive animals in Uzbekistan conditions. *IJAR*, 3(2), 272-277.

8. Bakirov, V., Ruzikulov, N. B., Boboev, O. R., & Ergashev, M. (2022). Endocrine properties of metabolic disorders in productive cattle in Uzbekistan. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 250-252).

9. Бакиров, В., Рўзиқулов, Н. Б., & Асқаров, С. С. (2018). МЕТАБОЛИК ГЕПАТОДИСТРОФИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ. *ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2020: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ*, 50.

10. Bakirov, V., & Ro'ziqulov, N. B. (2022). MAHSULDOR QORAMOLLARDA KATTA QORIN ATSIDOZINING YIL FASLLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 278-281.

11. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.

12. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.

13. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.

14. Bakirov, V., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration*, 29(01), 2273.

15. Ro'ziqulov, N. B. *Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi"*, 2021.

16. Бакиров, В. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2015). Ҳайвонларнинг ички юқумсиз касалликлари фанидан лаборатория машғулотларни бажариш бўйича услубий қўлланма. Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК.

17. Bakirov, V., & Ruzikulov, N. B. Status of protein and carbohydrate metabolism in dairy cows at heparthodystrophy. In *Proceedings of the international scientific conference on the pathophysiology of animals dedicated to the*.

18. Asqarov, S. S., Yunusov, X. B., & Ro'ziqulov, N. B. (2023). Qo 'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari. *Veterinariya meditsinasi*, (8), 18-19.

19. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Даминов, А. С. (2017). ва б. лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув қўлланма). Самарқанд: “Насимов” ХК, 600.

20. Ишниязова, Ш. А., & Рузикулов, Н. Б. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА, 1(1).

21. Ishniyazova, S., & Ruzikulov, N. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv.uz), 1(1).

22. Ro'ziqulov, N. (2021). Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. "Fan ziyosi" nashriyoti.

23. Ruzikulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. 2021. 1-212.

24. Ruzikulov, N., Askarov, S., Rasulov, N., & Boboev, O. (2022). RESULTS OF TREATMENT OF LAMBS DYSEPTIC. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 226-229).

25. Ro'ziqulov, N. Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand: "Sogdiana ideal print" bosmaxona, 2023.

26. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Asqarov, S. S., & Xudoyqulov, I. Yosh hayvonlar bronxopnevmoniyasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma. Samarqand: «Sogdiana ideal print», 2023.

27. Бакиров, Б. Б., & Рузикулов, Н. Б. (2015). Болезни животных.

28. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2011). Ички юқумсиз касалликлар фанидан босқич ишини бажариш бўйича услубий кўрсатма. Самарқанд: “Ф. Насимов” ХК.

29. Ro'ziqulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" darslik. Toshkent-2021 "Fan ziyosi" nashriyoti, 81-90.

30. Ro'ziqulov, N. (2023). Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. "Sogdiana ideal print" bosmaxona.